

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA TA'LIM-TARBIYA SIFATINI OSHIRISHGA INNOVATSION YONDASHUVNING MAZMUNI VA AHAMIYATI

Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova

Ilmiy rahbar, p.f.f.d (PhD), dotsent

Gulnoza Baxtiyorovna Qodirova

Toshkent Bucheon xalqaro universiteti 1-bosqich magistri

Annotatsiya. *Maktabgacha ta'lim ta'lim tizimining asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, bolaning har tomonlama: jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratadi. Bugungi globallashuv davrida maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlardan foydalanish va innovatsiyalarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya sifatini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar. *Innovatsiya, innovatsion yondashuv, individual yondashuv, zamonaviy texnologiya, interaktiv, faol ta'lim usullari, malaka darajasi*

Innovatsion yondashuv – bu ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni, yangi metodikalar va pedagogik strategiyalarni joriy etish orqali bolalarning qobiliyat va iste'dodlarini rivojlantirishdir. Ushbu yondashuv quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi:

Individual yondashuv: Individual ta'lim - o'qituvchining o'quvchiga pedagogik ta'sirini amalga oshiruvchi o'quv mashg'ulotlari shakllaridan biri bo'lib, bunda har bir bolaning qiziqishlari, imkoniyatlari va ehtiyojlariga qarab ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), interaktiv o'quv vositalaridan foydalanish.

Jahon amaliyoti axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini zamonaviy ta'lim

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

berish jarayonining barcha daraja va bosqichlariga kiritish lozimligini ko'rsatmoqda.

Ta'limga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq qilish va foydalanishdan asosiy maqsad –ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, ya'ni ta'lim oluvchi va beruvchilar uchun yangi imkoniyatlarni yaratib berishdan iboratdir.

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng ko'lamda joriy qilish quyidagilarni beradi:
 - o'quv va ilmiy axborotlarni talaba hamda professor-o'qituvchilar tomonidan qidirib topishga ketadigan vaqtning qisqarishi;
 - elektron o'quv adabiyotlar mazmunini davr talabidan kelib chiqqan holda o'zgartirishni tezlashtirilishi;
 - talabalarning mustaqil ta'lim olishlari uchun qo'shimcha vaqtning ajratilishi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'quv jarayonida qo'llashning istiqbollari bo'lib multimedia-texnologiyalar asosida interaktiv ma'ruzalarni tashkil qilish hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida interaktiv óqitish metodlari katta e'tiborga sazovor bo'lishganligi o'ziga xosdir. Bu metodlardan bir necha turi o'yinlar, interaktiv dasturlar va elektron ta'lim vositalaridir. Bu metodlar o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish, ilmiy materialni samarali tarzda o'rganish va tushunchalarni mustahkamlashda o'tishga yordam beradi. Bu esa o'quv jarayonini yanada qiziqarli va bezovta qiladi. Interaktiv o'yinlar, bugungi dunyoda katta bir ahamiyatga ega bo'lgan va har kuni ko'proq odamlar tomonidan o'ynalaydigan o'yinlardir. Bu o'yinlar, elektronik qurilmalar orqali yoki internet orqali o'ynash imkoniyatini beradi. O'yinlar, foydali va zararli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Interaktiv o'yinlarning birinchi foydasi, ularning insonning ma'lumotlarni oshirishda muhim rol o'ynamasidir. Bu turiy interaktivlik, odamlarni bilimdonlikka qiziqishni yanada rivojlantiradi. O'yinchilar bilimdonlikni yanada yuksaltish uchun interaktiv darslar ham tuzib berilmoqda.

Faol ta'lim usullari: Bolalarni faollikka undovchi o'yin texnologiyalari,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

loyihaviy ta'lim va eksperimentlarni qo'llash.

Innovatsion yondashuvlarning ta'lim-tarbiya sifatiga ta'siri

Innovatsion yondashuvlar mакtabgacha ta'lim jarayoniga quyidagi jihatlarda ijobiliy ta'sir ko'rsatadi:

Bolalarning aqliy rivojlanishi: Zamonaviy texnologiyalar va usullar bolalarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo`lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida keyin esa o`quv mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida [rasm chizish, loy) amalgaga oshirib boriladi. Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o`zlashtirib olish, ularni jamg`arish, ijodiy tafakkurni rivojiantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo`lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko`rsatkichlari hisoblanadi. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi.

Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha ta'lim yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bularning hammasi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarini yanadachuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha ta'im yoshining oxiriga kelib bolalar tevarak atrof to`g`risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo`lib qoladilar, asosiyfikrlash jarayonini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi voqealardagi muhim va muhim bo`lmagan tomonlarini ajrata oladigan ba'zi bir sabab natijali bog`lanishlarni bilib oladigan bo`lib qoladilar. Ularda o`quv faoliyatining dastlabki ko`rsatkichlari shakllanadi. Shuning uchun bog`cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega.

Ijodkorlikni rag`batlantirish: Innovatsion yondashuvlar orqali bolalarning qiziqishlari uyg`otilib, ularning ijodiy qobiliyatları shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish intellektual ko'nikmalar, fikrlash va xotirani rivojlantirishdan kam emas, chunki bu jarayonlarning barchasi o'zaro

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bog'liqdir. Bolani o'qitishda ijodkorlik unga nafaqat atrofdagi dunyonio'rganishdan zavq bag'ishlaydi, balki hayotda keyingi o'rganish uchun shubhasiz foyda keltiradi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish shartlari

Bolaning ijodiy salohiyatini rivojlantirish maxsus sharoitlarni yaratishni talab qiladi.

1. Bolani ijodiy jarayonga erta jalb qilish.

2. Ijodiy faoliyatni rag'batlantirish uchun rivojlanayotgan muhitni yaratish, bolani barcha harakatlarida qo'llab-quvvatlash, oila a'zolari o'rtaсидаги ishonchli munosabatlar.

3. Bolaning jismoniy salomatligini rivojlantirish, nozik va qo'pol vosita qobiliyatlari, harakatlarni muvofiqlashtirish.

4. Ushbu yoshdagi etakchi faoliyat orqali mактабгача yoshdagi bolaning ijodiy tafakkurini rivojlantirish – bu o'yin.

5. Farzandingizga hozirgi paytda nima qilishni va qanday qilishni xohlashini tanlash erkinligini berish.

6. Agar kerak bo'lsa, bolaga yordam berish.

7. Mustaqillik va tashabbusni rag'batlantirish.

8. Mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizliklar uchun bolani qo'llab-quvvatlash, uning qobiliyatiga ishonish.

Ta'lim jarayonining qiziqarli bo'lishi: O'yin texnologiyalari va interaktiv metodlar bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Ta'lim muhitining rivojlanishi: Innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonini samaraliroq, qulayroq va sifatliroq qiladi.

Mактабгача ta'limda innovatsiyalarni tatbiq etish yo'nalishlari

Mактабгача ta'lim tashkilotlarida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

AKTdan foydalanish: Bolalarga mo'ljallangan o'quv dasturlari, elektron o'yinlar va ta'limiy ilovalardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini interaktiv qilish.

STEAM ta'limni joriy etish: Ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikaga asoslangan ta'limni maktabgacha bosqichda integratsiya qilish.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

O‘yin texnologiyalaridan foydalanish: Pedagogik o‘yinlar orqali bolalarning qiziqishini oshirish va ularni bilim olishga jalg qilish.

Ekologik ta‘limni rivojlantirish: Bolalarga tabiatni sevish va unga g‘amxo‘rlik qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Innovatsion yondashuvlarni joriy etishda duch kelinadigan muammolar

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishda quyidagi qiyinchiliklarga duch kelinadi:

Pedagoglarning malaka darajasi: Innovatsiyalarni samarali qo‘llash uchun pedagoglarning zamonaviy texnologiyalarni bilishi va ularni amalda qo‘llay olishi zarur.

Moliyaviy va resurslar yetishmovchiligi: Innovatsion uskunalar va o‘quv vositalarini xarid qilish uchun mablag‘ talab etiladi.

Yondashuvlarning metodik ta‘minoti: Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha metodik qo‘llanmalar va dasturlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Tavsiyalar

Maktabgacha ta‘limda ta‘lim-tarbiya sifatini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- Pedagoglar malakasini oshirish bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish.
- Innovatsion texnologiyalarni xarid qilish uchun davlat va nodavlat manbalaridan mablag‘ jalg qilish.
- Metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va tarqatish.
- Ota-onalarni innovatsion yondashuvlarga jalg qilish va ular bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Maktabgacha ta‘lim tizimida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash ta‘lim-tarbiya sifatini oshirishga, bolalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagoglarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, moliyaviy va texnik resurslarni kengaytirish muhimdir. Innovatsiyalar ta‘lim jarayoniga yangi ruh bag‘ishlab, bolalarning ijodkor va bilimdon shaxslar bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi. Innovatsiyalar orqali ta‘lim sifatini oshirish nafaqat bolalarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, balki ularni kelajakda

ijodkor va bilimdon shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shodiya, O. (2023). TARBIYALANUVCHILARDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH VOSITA VA SHAKLLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(14), 690-693.
2. Boboyev G‘., Ahmedov M.– “Maktabgacha ta’limning metodologiyasi va texnologiyasi”.
3. Ibroximovna, A. D., & Sotvoldiyevna, Y. J. (2024). MAKTABGACHA TA’LIMDA INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYASINING JORIY ETILISHINING AHAMIYATI. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 6(1), 300-302.”.
4. Ilauatdinova, D. (2024). TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR AHAMIYATI. *Journal of new century innovations*, 64(2), 199-201.
5. Gaynazarova G.A., Xudoyberdiyev R.B. XALQ TA’LIMI TIZIMIDA RAHBAR XODIMLARNING MA’NAVIY QIYOFASI